

TARBIYA FANINI O'QITISHDA TEATR PEDAGOGIKASINING O'RNI

Rafikova Dilafruz Kaxxorialiyevna

*Farg'ona davlat universiteti "Pedagogika"
kafedrasida katta o'qituvchisi, p.f.b.f.d.,(PhD)*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarbiya fanini o'qitishda teatr pedagogikasining ahamiyati, teatrshunos olimlarning olib borgan tadqiqotlarida teatr sanatiga tarbiyaning ilg'or vositasi sifatida qarash insonni kashf etishga yo'l ochishligi, shuningdek, teatr pedagogikasi umumiy pedagogika tarbiya nazariyasining alohida yonalishi bo'lib, u teatrlashtirish faoliyatida bola shaxsining o'z-o'zini ifoda etishini ta'minlovchi usullar tizimini o'z ichiga olishi haqidagi ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Tarbiya fani, pedagogika, teatr pedagogikasi, teatrlashtirish faoliyati, madaniy meros, aktyorlik va pedagogik qobiliyat.*

РОЛЬ ТЕАТРАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ В ПРЕПОДАВАНИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ НАУКИ

Аннотация: *В данной статье рассматривается значение театральной педагогики в преподавании педагогической науки, то, что в исследованиях театроведов рассмотрение театрального искусства как передового средства воспитания открывает путь к раскрытию личности, а также театральная педагогика представляет собой особую интерпретацию теории общей педагогики воспитания, которая заключается в том, что развитие личности ребенка в деятельности по театрализации информации содержит систему приемов, обеспечивающих экспрессию бита.*

Ключевые слова: *Педагогическая наука, педагогика, театральная педагогика, театральная деятельность, культурное наследие, актерское и педагогическое мастерство.*

ROLE OF THEATER PEDAGOGY IN TEACHING SCIENCE OF EDUCATION

Annotation: *In this article, the importance of theater pedagogy in teaching the science of education, the fact that in the studies conducted by theater scientists, viewing the art of theater as an advanced means of education opens the way to the discovery of a person, as well as the theater pedagogy is a special interpretation of the theory of general pedagogy of education, which is the development of the child's personality in the activity of theatricalization. information is given that it contains a system of methods that ensure the expression of the bit.*

Key words: *Educational science, pedagogy, theater pedagogy, theatrical activity, cultural heritage, acting and pedagogical skills.*

Tarbiyaviy jarayon ijodkorlikdan iboratdir, lekin u pedagogik vaziyatni tahlil qilish mahoratida ham, bolalar bilan bevosita o'zaro hamkorlik qilishda ham namoyon bo'ladi. Tarbiyachi ijodkorligining o'ziga xosligi shundan iboratki, u ijodiy fikrini o'z shaxsi orqali amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, pedagogikada ijodkorning shaxsi bilan ijodkorlik quroli (vositasi) bir-biriga mos keladi bunda tarbiyachining o'z-o'zini namoyon qilishi juda katta rol o'ynaydi. Bu jihatdan o'qituvchining faoliyati bir qator xususiyatlari bo'yicha aktyor, rejissyorning badiiy-ijodiy faoliyatiga yaqindir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 26-maydagi «Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-600-sonli Farmoni o'zbek milliy san'atida teatr faoliyatini yanada rivojlantirish, tizimda qator islohotlar va yangiliklar uchun muhim qonuniy asos bo'ldi[2]. Shuningdek, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'nan va ruhan tarbiyalashda ham amaliyotga keng tadbiriq etila boshlandi.

Shuni qayd etib o'tish kerakki, teatr ijodkorligida va pedagogik ta'sir ko'rsatishda, ya'ni pedagog bilan bolalarning bevosita o'zaro harakati bilan bog'liq bo'lgan hissi-o'zaro fikr almashish sohasida ko'pgina umumiy tomonlar bor. Tarbiyachi pirovard natijada pedagogik ta'sir ko'rsatish dramaturgiyasini ishlab chiqadi, uni rivojlantirish sohalarni belgilaydi, tarbiyaviy ta'sirlar rejasini tuzib chiqadi, bu reja u yoki bu tarbiyaviy syujetni rejissyorona ko'rishni nazarda tutadi, nihoyat, pedagogning o'zi tarbiyaviy g'oyalar va yo'l-yo'riqlarning faol «uzatuvchisi» bo'lib maydonga chiqadi. Bu ikkala ijodiy jarayonni muomala va o'zaro faqat bir-biriga yaqinlashtiradi.

Teatr san'atiga tarbiyaning ilgor vositasi sifatida qarash insonni kashf etishga yo'l ochadi. Insonni kashf etish esa shaxsni kashf etishdir. Aynan badiiy ijodiy faoliyatda bola o'zini to'laroq namoyon eta oladi" L.M.Batkin.

Teatr pedagogikasi umumiy pedagogika tarbiya nazariyasining alohida yonalishi bo'lib, u teatrlashtirish faoliyatida bola shaxsining o'z-o'zini ifoda etishini taminlovchi usullar tizimini o'z ichiga oladi. Bola shaxsining o'z-o'zini ifoda etishi esa pedagogning aktyorlik tasiri ostida roy beradi.

Mil.avv.gi IV-V asrlarda Qadimgi Yunoniston (Gretsiya), Qadimgi Rim va Yaqin Sharqda yuzaga kelgan antik teatr Yevropa teatr san'atining tug'ilishiga olib kelgan. Madaniy meros bilan tanishtirish, qonunlarga nisbatan hurmatni tarbiyalash maqsadida bolalarni teatrga jalb etilgan (bolalar xori). Ba'zi teatr tizimlari esa notiqlik, raqs va qo'shiq aytishga asoslanib, ularda oyin tamoyili birinchi o'ringa chiqqan. Teatr niqobi o'yin namoyishlarining ifodali vositasi hisoblangan. Niqob insonning emotsional holati, hissiyotlarini va olamga bo'lgan munosabatini ifodalashga ko'maklashgan. Teatr niqobi o'yin namoyishlarining ifodali vositasi hisoblangan. Niqob insonning emotsional holati, hissiyotlarini va olamga bo'lgan munosabatini ifodalashga ko'maklashgan.

Teatrlashtirilgan harakatlarda niqobdan foydalangan bola emotsional bosimni, hayolparishonlikni, uyatchanlikni yashirishi mumkin edi.

Shu bilan birga kishi shuni aniq bilishi kerakki, bu faoliyat turlaridagi o'xshash qismlar chuqur o'ziga xos qismlar sifatida namoyon bo'ladi, bunga sabab avvalo shuki,

bu ijodiy jarayonlarning o'zi, tuzilishi va vazifalariga ko'ra aynan o'xshashdir. Gap teatr ijodkorligi nazariyasidan, xususan K.S.Stanislavskiy sistemasidan pedagogik ta'sir ko'rsatish mahoratini oshirishda foydalanish imkoniyatlari haqida bormoqda. Masalan, jarayonning hissiy sohasini tahlil qilish borasida teatr pedagogikasi tomonidan to'plangan bir muncha tajriba asosida o'zaro fikr almashish amalga oshiriladi va bu tajriba pedagogning ijodiy mehnatiga o'xshash jarayonlarni tushunish foydalidir, bu esa tarbiyaviy mahoratni samarali egallashga yordam beradi.

Teatrshunos Sh.Minovarov fikriga ko'ra, «Teatr san'ati har xil yoshdagi, xarakterdagi bolalarning fe'liga ta'sir etadigan, ularning qiziqishini o'stiradigan tarbiya maktabidir. Buning uchun bolalar teatri har xil spektaklni sahnalashtirishda ularning psixologiyasini bilishdan tashqari pedagogika, ruhshunoslik, bolalar adabiyoti va adabiyotshunosligidan ma'lumotga ega bo'lishi lozim»[1]

Teatr faoliyati bilan pedagogik faoliyatning o'zaro aloqalariga doir masalalar A.S.Makarenkoni hamisha qiziqtirib kelgan. A.S.Makarenkoning badiiy-teatr ziyolilari bilan yaqindan tanishuvi uning pedagogik faoliyatning hissiy-ijodiy tabiati mohiyatini tushunib etishga ham tegishli ta'sir ko'rsatmasligi mumkin emasdir. Shunisi diqqatga sazovorki, Makarenko boshlovchi pedagoglar bilan etyud ishlari olib borish zarurligi haqida gapirgan va bunday ishni o'z kommunasida o'tkazgan edi. Makarenkoning etyud o'tkazish amaliyotlarini tahlil qilib, K.S.Stanislavskiyning teatr maktabi ta'sirini beixtiyor his qilasiz. Ikki buyuk pedagog ijodkorning ijodiy tabiatini rivojlantirishni o'z maqsadlari deb bildilar, shuning uchun ham rejissyor N.V.Petrov o'z vaqtida K.S.Stanislavskiy bilan A.S.Makarenkoning pedagogik konsepsiyalarini taqqoslab ko'rsatgan edi.

A.S.Makarenko aktyorlik va pedagogik qobiliyatlarining o'zaro singuvchanligini bir necha bor ko'rsatib o'tar ekan, tabiiyki, bu ikki mustaqil ijodiy jarayonni ayni bir xil narsa demagan. Lekin ijodkorlikning mazkur turlarida ijodkor shaxsiga oid talablarda mavjud bo'lgan umumiylikni payqagan edi. U tarbiyachining pedagogik mahoratini shakllantirish haqida gapirib va jarayonning hissiy-ijodiy jihatlari ahamiyatini ta'kidlab: «Bunda o'quv nimadan iborat edi? Avvalo pedagogning fe'l-atvorini tashkil etishdan, uning hulq-atvorini tarbiyalashdan, keyin esa uning maxsus bilimlari va mahoratini tashkil etishdan iborat ediki, bularsiz birortasi tarbiyachi yaxshi tarbiyachi bo'la olmaydi, ishlay olmaydi. Chunki uning ovozi yaxshi yo'lga qo'yilgan emas. Yuz harakatlarini yaxshi egallamagan, o'z yuziga zarur ma'nolarni bera olmaydigan yoki o'z kayfiyatini ushlab turolmaydigan kishi yaxshi tarbiyachi bo'lishi mumkin emas. Men shunga aminmanki, kelgusida pedagogika oliy o'quv yurtlarida ovozning qo'yilishi ham, gavdaning tutishi ham, o'z a'zolarini boshqarish ham o'z yuzini egallash ham o'qitiladi. Bularsiz men tarbiyachining ishini tasavvur qila olmayman»-degan edi.

Shunday qilib teatr va pedagogik faoliyat mazmun (o'zaro fikr almashish) va vosita belgilari jihatdan (ijodkorni shaxsi va uning psixofizik tabiati ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida) bir biriga yaqin bo'lib, bir qator umumiy jarayon xususiyatlariga egadir, bu xususiyatlarga quyidagilarni kiritish mumkin: teatr va pedagogik ijodkorlik

jarayoni u bevosita ishtirokida ommaviy so'zga chiqish vaziyatida amalga oshiriladi; teatr va pedagogik faoliyat o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra o'zi ta'sir ko'rsatadigan ob'ektni ayni vaqtda ijod sub'ektiga, sherik ijodkorga aylantiradi, uning faol ishtirokisiz ijodkorlik ishining o'zi bo'lmaydi; ko'pgina faoliyat turlaridan farqli o'laroq, aktyorlik va pedagogik ijodkorlik asosida buning uchun ajratilgan muayyan vaqt davomidagi ijodkorlik etadi, u ijodkordan (o'qituvchi, tarbiyachidan) o'z ruhiy holatini boshqarishda tezkorlikni va ijodiy kayfiyatni ayni dakiqada qo'zg'atishni talab qiladi; teatr va pedagogik ijodkorlik natijalari jo'shqin bo'lib, rivojlanib, o'zgarib boradi, boshqacha qilib aytganda, hamisha jarayondan iborat bo'ladi; teatr va pedagogik ijodkorlik jamoa tusda bo'ladi. Tarbiyaviy jarayon pirovard natijada ikkita yirik bosqichdan: tarbiyaviy maqsad va uni amalga oshirish jarayonidan tashkil topadi. Shuning uchun birinchi bosqichda ham, ikkinchi bosqichda ham aynan o'qituvchining teatr-ta'sirchanlik qobiliyatlari muhim rol o'ynaydi.

O'qituvchi faoliyatining tuzulishi bo'lajak pedagogning tashkilotchilik-boshqaruv ko'nikmalari va malakalariga ma'lum talablar qo'yadi, shu munosabat bilan uni aktyorlik va rejissyorlik mahorati tarkibiy qismliriga o'rgatib borish zarurati ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdusamatov Hafiz: «Drama nazariyasi» - G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent - 2000.
2. Mirziyoyev Sh. «Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-600 sonli Farmoni. - T., 2020.
3. Kabilov N. TEATR PEDAGOGIKASINING BOLA TARBIYASIDA TUTGAN O'RNI. ЖУРНАЛ. Oriental Art and Culture. 2023
4. Рафиқова Д., Азимов У. ТАЪЛИМНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ВА ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2 (81). – С. 167-169.
5. Rafikova D. et al. Preparing to innovative activity: Problem solving //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2023. – Т. 2789. – №. 1.